



## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **63,4 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida **1319** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **115,3** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 445 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 342 ta, sanoat tarmog'ida 132 ta, yashash va ovqatlanishda 96 ta, qurilish tarmog'ida 61 ta, tashish va saqlashda 45 tani tashkil etilgan.



2026- yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 63,4 foizi (2025- yil yanvar-martida 63,8 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 3656,2 mlrd. so'mni (33,5 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2971 tani tashkil etdi);



5146,3 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,6 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4818 tani tashkil etdi;



3589,9 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 58,8 foizi) 2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 196,8 foizni tashkil etdi;



2370,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 72,4 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2113 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 9,6 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 88,9 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 10,2 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 89,7 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 780 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 93,9 foizi yoki 6244,5 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 22,9 foizi yoki 9302,1 mlrd. so'mni, tashkil qildi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 559 ta.




55,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 58,8 foizi) 71,2 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 50,4 foizi) ni tashkil etdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi<sup>51</sup>




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 146,3	97,6
Sanoat	3 656,2	33,5
Qurilish	2 370,2	72,4
Chakana savdo	6 244,5	93,9
Yuk tashish, mln tn.	11,5	88,9
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	81,8	89,7
Eksport, mln. AQSH doll.	55,5	58,8
Import, mln. AQSH doll.	71,2	50,4

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti  
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik  
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2026- yil 1-aprel holatida 38806 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,5 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (35,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (20,3 %), sanoat (12,4 %), qurilish (36,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,1 %), tashish va saqlash (3,0 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (2,2 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

**2026- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




**2026- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (390,5 mlrd. so'm), Nishon (343,6 mlrd. so'm), Qarshi (265,1 mlrd. so'm), Qamashi (167,8 mlrd. so'm) va Kitob (166,3 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (1498,0 mlrd. so'm), Shahrisabz (476,3 mlrd. so'm) shaharlari va Koson (494,0 mlrd. so'm) va Qamashi (419,7 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 63,4 foizni tashkil qilib, 2025- yilning mos davrida 63,8 foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), Qamashi (95,6 %) tumanlari va Shahrisabz shahriga (86,6 %) hamda eng past ulushi Nishon (9,7 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Qarshi shahri (60,9 %), Shahrisabz shahri (59,3 %), Muborak (72,1 %), Dehqonobod (67,8 %), Ko'kdala (46,2 %) va G'uzor (64,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.